



O'ZBEKISTON
YOSHLAR
ITTIFOQI



**RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR
KENGASHI**



O'ZBEKISTON YOSHLARI
UMUMJAHON ASSOTSIATSIYASI

«ГЛОБАЛЛАШУВ ДАВРИДА ЁШЛАР МИГРАЦИЯСИ
ВА УНИНГ ИЖТИМОЙ-СИЁСИЙ МАСАЛАЛАРИ»
ХАЛҚАРО КОНФЕРЕНЦИЯ
МАЪРУЗАЛАР ТЎПЛАМИ

2020 йил, 18–21 декабрь

Тошкент шаҳри

**TOSHKENT
YOSHLAR
FORUMI
2020**

Toshkent – 2020

Tahrir hay'ati:

Asrorova Lobar Qobilovna – tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD
Saidova Sayyora Alisher qizi – falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

To'plovchi:

Mohirabonu Saidova, Fotima Tohirova

To'plamga Respublika Oliy va o'rta-maxsus o'quv yurtlarida ilmiy izlanishlar olib borayotgan yosh tadqiqotchilar, doktorant, pedagoglar, magistrant va talabalarning maqola va tezislari kiritilgan.

*Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma ma'lumotlar aniqligi
uchun mualliflar javobgar.*

O‘ZBEKISTONDA YOSHLAR MIGRATSIYASI VA BU BORADAGI ISLOHOTLAR

Xoliqov Lazizjon Maxmud o‘g‘li

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy Universiteti,
Ijtimoiy fanlar fakulteti 2-bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda yoshlar migratsiyasi va bu borada amalga oshirilayotgan islohotlarning tub mohiyati yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: migratsiya, xotin-qizlar, yoshlar, migrantlar, odam savdosi, muhojirlar, vatandosh, ziyorat vizasi.

Аннотация: В статье освещается сущность молодежной миграции и проводимых реформ в Узбекистане.

Ключевые слова: миграция, женщины, молодежь, мигранты, торговля людьми, иммигранты, граждане, гостевые визы,

Annotation: This article highlights the essence of youth migration and ongoing reforms in Uzbekistan.

Keywords: migration, women, youth, migrants, human trafficking, immigrants, nationals, visitor visas,

Migratsiya deyilganda eng avvalo, ko‘z oldimizga aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi, ya‘ni o‘z joyini o‘zgartirishi tushuniladi. Migratsiya (lot. migratio – ko‘chaman, joyimni o‘zgartiraman) degan ma‘noni anglatadi.

Aslida, migratsiya keng qamrovli so‘z bo‘lib, quyidagilarni anglatadi:

Birinchidan, aholining bir joydan ikkinchi joyga ko‘chishi;

ikkinchidan, hayvonlarning yashash muhiti sharoiti yoki rivojlanish sikli o‘zgarishi bilan bir geografik hududdan ikkinchisiga ko‘chishi;

uchinchidan, kimyoviy elementlarning yer qobig‘ida yoki yer yuzasida o‘z joyini o‘zgartirishi;

to‘rtinchidan, energiyaning bir zarrachadan boshqasiga o‘tishi;

beshinchidan, kapitalning qo‘shimcha qiymat olish va siyosiy maqsadlarda bir mamlakatdan boshqasiga muntazam chiqib turishi.¹

Bugungi kunda O‘zbekistonda bolalarni himoya qilish tizimidan foydalanishni yaxshilash maqsadida hamda muhojirlarning oilalari va farzandlarining ehtiyojlarini aniqlab, ularga yordam ko‘rsatish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Buning yaqqol isboti sifatida O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi va UNICEF, Yevropa Ittifoqi ko‘magida, migratsiya ta‘siridan bolalarni himoyalash bo‘yicha ishga tushirilgan loyihani keltirib o‘tishimiz mumkin. Ushbu loyiha Janubi-Sharqiy va Janubiy Osiyo hamda Markaziy Osiyo mintaqalaridagi sakkizta mamlakatida, jumladan O‘zbekistonda ham amalga oshiriladi.

2020-yilning oxirigacha to‘rtta viloyatda – Buxoro, Farg‘ona, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida mazkur loyiha boyicha tadbirlar olib boriladi. Muhojir ota-onalar tomonidan tashlab ketilgan bolalarga parvarish va himoya etishmasligi mumkin. Migratsiya ta‘sir



ko'rsatgan oilalar qiyinchilikka duch keladi va ijtimoiy himoyaga muhtoj bo'ladi. Bunday oilalar va bolalarga vasiylik va homiylik organlari, Xotin-qizlar qo'mitasi, oilaviy markazlar va nohukumat tashkilotlari, shuningdek Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi bo'linmalari tomonidan viloyat va tuman darajasida yordam ko'rsatiladi.

“Migratsiya muammosi nafaqat Markaziy Osiyoda bo'libgina qolmay, balki global xarakterga ega. Tobora ko'proq odamlar yaxshi hayot va daromad qidirib, uylarini va oilalarini tark etmoqdalar”, deb ta'kidlaydi. Yevropa Ittifoqining O'zbekistondagi Delegatsiyasi rahbari, elchi Eduards Stiprays.

Bizning diyorumizda ham muhojir oila bolalarining himoyasi kundan kunga davlat siyosati darajasiga chiqib bormoqda. O'zbekiston Bosh vaziri o'rinbosari, Xotin-qizlar qo'mitasi raisi Tanzila Narbaevaning “Biz birgalikda muhojirlar oilalarining bolalarini e'tiborga oladigan bola himoyasi bo'yicha barqaror siyosatni ta'minlashimizga ishonamiz”¹, degan qarashlari ham fikrimizning nechog'lik to'g'ri ekanligini isbotlab beradi.

Odamlar yaxshi hayot va daromad izlab, uylarini tark etib, oilalarining to'kin-sochinligini ta'minlayotganligi biz qoralay olmaymiz albatta. Ammo, mehnat migratsiyasining yoshlar bilan bog'liq jinoyatlarga sabab bo'layotganligini ham unutmasligimiz kerak. O'zbekistonda yoshlar va xotin-qizlar bilan bog'liq muammolar, jinoyatlar, ularning odam savdosi va ekstremizm to'riga tushib qolishi ko'p hollarda tashqi mehnat migratsiyasi bilan bog'liq. Bu haqda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati raisi Tanzila Norboyeva 2019-yilning 28-noyabr kuni “O'zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida o'tayotgan “XXI asrda gender va yoshlar masalalari bo'yicha hamkorlikni rivojlantirish” mavzusidagi xalqaro forumda ma'lum qilgan edi.

O'zbekistonda aholining 60 foizini yoshlar tashkil qiladi. Ayni vaqtda mamlakatda yoshlarni ta'limga qamrab olish, kasb va hunar o'rgatish va ish bilan ta'minlash eng dolzarb masalalardan biri. Davlat rahbari har chiqishida yoshlarni ish bilan ta'minlash masalasida jiddiy topshiriqlar beradi. Shu bois mamlakat tarixida ilk bor “Xususiy bandlik agentliklari to'g'risida”gi Qonun qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan xorijda mehnat faoliyatini amalga oshirayotgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash hamda huquqlari va manfaatlarini himoya qilish jamg'armasi tashkil etildi. Mintaqada yagona bo'lgan va davlat tomonidan to'liq moliyalashtiriladigan Odam savdosi jabrdiydalariga yordam berish bo'yicha respublika reabilitatsiya markazi faoliyat ko'rsatmoqda.²

Bugungi kunda XMTning hisob-kitoblariga ko'ra, xalqaro muhojirlar soni dunyo bo'ylab 272 mln. kishiga yetgan va ularning uchdan ikki qismi mehnat migrantlari hisoblanadi. Bu dunyo aholisining 3,5 foizidir. 2019-yilda muhojirlarning pul o'tkazmalari 689 mlrd. AQSh dollaridan oshgan. 70 mlndan ortiq aholi yashaydigan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun asosiy masalalardan biri bu – yoshlar migratsiyasidir. Migratsiya nuqtai nazaridan mintaqaning barcha mamlakatlarida umumiy xususiyatlarni kuzatish mumkin. Masalan, Qozog'iston ish beruvchi davlat

¹ <https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/press-releases/%C6%A1zbekistonda-migratsiya-tasiridan-bolalarni-himoyalash-b%C6%A1yicha-loyiha-ishga>

² <https://qalampir.uz/uz/news/ayellar-va-yeshlar-bilan-boglik-zhinoyatlarga-me%D2%B3nat-migratsiyasi-sabab-bulmok-da-tanzila-norboyeva-11249>

bo'lsa, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston asosan ishchi kuchi yetkazib beradigan davlatlar hisoblanadi. Ma'lumotlarga ko'ra, har yili 600 mingdan ziyod bitiruvchilar mehnat bozorida barqaror ish o'rinlarini yaratishni talab qilmoqda va ularning aksariyati ish qidirayotganligi ushbu sohadagi ishlar yetarli darajada olib borilmayotganini ko'rsatadi.¹

Hozirda aholining xalqaro migratsiyasi globallashti. BMTning Iqtisodiy va ijtimoiy masalalar bo'yicha departamenti ma'ruzasida keltirilishicha, bugun dunyo bo'ylab migrantlar soni 250 milliontaga yetgan. 2050-yilga borib bu raqam 321 milliontani tashkil etadi. E'tiborlisi, uning 30 foizi 29 yoshgacha bo'lgan yoshlar hissasiga to'g'ri keladi. O'zbekiston ham ushbu global jarayonlarda faol ishtirok etmoqda. Migrantlarning ko'pgina davlatlardagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishi sir emas. Migratsiyaning ijobiy va salbiy jihatlari ham mavjud. Demak, bu nojo'ya ta'sirlarni kamaytirish bo'yicha mos qarorlarni qidirishni hamda shaxs va jamiyat rivojlanishidagi ijobiy ta'sirini oshirishga qaratilgan o'rganishlarni talab etadi.

Xorijga chiqishning sabablari ko'p: biznesni yuritish, sayohat qilish, qarindoshlari va do'stlarinikiga mehmonga borish, o'qish, mehnat faoliyatini amalga oshirish va hokazo. O'zbekistonliklarning asosiy oqimi MDH davlatlariga yo'l olmoqda. BMTning nufus sohasidagi jamg'armasi (UNFPA) hisobi bo'yicha Rossiyada 2 milliondan ziyod kishi, 600 mingga yaqin vatandoshimiz esa Qozog'istonda vaqtincha mehnat migratsiyasida.

So'nggi yillarda migratsiya jarayonlari, fuqarolar bilan ishlash va birgalikda harakat qilish, davlat tuzilmalarining aholi bilan olib boradigan muzokaralarini tartibga solish qayta ko'rib chiqildi. Xorijdagi fuqarolarni ishga joylashtirishning tashkiliy shakllarini yo'lga qo'yish bo'yicha ham ishlar olib borilyapti. Xorijiy kelishuvlardan, samarali ishga joylashtirish uchun kvotalar olishdan, migrantlarga amaliy ko'mak berishdan vaziyatning yanada yaxshilanishi kutilmoqda. Migratsiya sohasida muvofiqlashtirilgan holda ishlashini ta'minlash uchun davlat organlari, vazirliklar va idoralar, davlat va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish birinchi galda fuqarolarning huquqlarini himoya qilish, uylariga qaytayotgan mehnat migrantlariga reabilitatsiya (*tibbiy, ruhiy va pedagogik jihatdan tiklash*) va reintegratsiya (*fuqaroligini qayta tiklash*) yordamini ko'rsatishga qaratilgan.

XMT ishchi kuchini eksport qiluvchi davlatlarga migrantlar manfaatini himoya qilish, ayni damda xorijdagi va chet elga ishlashga chiqmoqchi bo'layotganlarga maslahat hamda axborot xizmatini ko'rsatishdagi rolini oshirish uchun davlat organlari vazifalarining yangicha shaklini yaratishni taklif etuvchi tavsiyanomalarni ishlab chiqdi.

Migrantlarning ehtiyojlari, jumladan, ijtimoiy kam ta'minlangan oilalardagi potensial mehnat migrantlarini o'qitishga mo'ljallangan, ularni tayyorlash va moslashtirish dasturlarini amalga oshirishda XMT bilan hamkorlikni kengaytirish istiqbolli va muhimdir. Xorijiy bozor talablariga mos ravishda, chet elga chiqishidan oldin mehnat migrantlarini tayyorlash va moslashtirish tizimi ham takomillashtirilmoqda. Bu yo'nalishdagi ishlarni davom ettirish, XMT ishida



faol ishtirok etish migratsiya jarayonlarini boshqarish mexanizmlarini yaxshilash imkonini beradi.¹

Qaysi davlat fuqarosi bo'lishidan qat'iy nazar, o'zbekistonliklarni vatan bilan bog'lab turgan rishtalar zaiflashgan emas. Vatandoshlar uchun O'zbekiston eshiklarining keng ochilishidan ko'riladigan strategik manfaatlar ham talay. Jumladan, vatandoshlarning xorijiy professional tajribasi ham islohotlar ketayotgan O'zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega. Ichki va tashqi turizmni rivojlantirish, O'zbekistonga sarmoya kiritish, ish o'rinlarini yaratishdan tortib pul jo'natmalarigacha bo'lgan jarayonlarda xorijdagi vatandoshlarning muhim hissasi bo'lishi tayin. Fikrimiz dalili sifatida O'zbekiston hukumatining 2019-yil 17-aprel sanasidagi qarori bilan "Xorijda istiqomat qilayotgan vatandoshlar va ularning oila a'zolarini O'zbekiston Respublikasiga taklif qilishni rasmiylashtirish, ko'p martalik kirish vizalarini berish hamda ularni ichki ishlar organlari tomonidan vaqtincha propiska qilish tartibi to'g'risida"gi nizomni keltirib o'tishimiz mumkin.

Viza tartibini liberallashtirish, xorijiy fuqarolarni ro'yxatga olish tartibini soddalashtirish, so'nggi yillarda sohada yangi imtiyoz va preferensiyalar berish ichki va tashqi bozorlarda milliy sayyohlik salohiyatimizni namoyon etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buni biz o'tgan davr mobaynida mamlakatimizga uzoq xorijdan tashrif buyurgan sayyohlar oqimini sezilarli darajada oshganida ham ko'rishimiz mumkin.

2019-yil 5-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni imzolandi. Ushbu Farmonga muvofiq, O'zbekiston Respublikasiga tashrif buyuradigan xorijiy fuqarolarning ayrim guruhlari uchun qo'shimcha (elektron bo'lmagan) kirish vizalari toifalarini berish belgilangan. Shunga ko'ra, quyidagi yangi viza turlari joriy qilinadi:

➤ "Vatandosh" – asli o'zbekistonlik bo'lgan kishilar va ularning oila a'zolari uchun O'zbekiston fuqarosi hisoblangan qarindoshlari tomonidan taklif etilgan hollarda beriluvchi ikki yillik viza;

➤ "Student visa" – O'zbekistonda joylashgan ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan chet ellik talabalarga beriladigan bir yillik viza. Ushbu viza respublikadagi ta'lim vazirliklari, idoralari va tashkilotlari murojaatiga asosan rasmiylashtiriladi;

➤ "Academic visa" – O'zbekistonda ilmiy-tadqiqot va ta'lim faoliyatini olib borish istagida bo'lgan chet elliklar uchun 3 oydan 2 yilgacha bo'lgan muddatga, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, oliy ta'lim muassasalari murojaatiga ko'ra beriladi;

➤ "Medical visa" – O'zbekistonga davolash-profilaktika muassasalari taklifiga asosan tashrif buyuruvchi xorijiy mamlakatlar fuqarolari uchun 3 oygacha bo'lgan muddatga beriladigan viza.

➤ "Piligrim visa" – ziyorat vizasi bo'lib, ushbu viza sayyohlik faoliyati subyektlari hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari bo'yicha qo'mita so'roviga ko'ra chet ellik fuqarolarga O'zbekistonning madaniy-tarixiy va diniy-ma'naviy merosi va an'analarini o'rganish uchun 2 oygacha bo'lgan muddatga beriladi. Davlatimiz tomonidan

¹ Shuhrat Isoqulov, iqtisod fanlari nomzodi. Migratsiyaning salbiy ta'sirini qanday kamaytirish mumkin? <https://pv.uz/oz/news/migratsiya-kak-snizit-negativnyj-effekt>

kirish vizasi berish tartibni liberallashtirish masalalari bo'yicha olib borilayotgan faol va ochiq siyosati chet eldagi turli qatlam vakillarini O'zbekistonga tashrifini yanada oshiradi va kelgusida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda hamda mamlakatni yirik mintaqaviy ta'lim markaziga aylantirishda ham yordam beradi¹.

Bugungi kunda O'zbekistonda aholini ish bilan ta'minlash hamda ishsizlar sonini kamaytirish bo'yicha talaygina ishlar amalga oshirilmoqda. Bunga misol qilib Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 28-aprelda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan "Aholi bandligi to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini keltirishimiz mumkin. Qonunga ko'ra, aholi bandligi sohasidagi asosiy prinsiplar sifatida quyidagilar keltirib o'tilgan:

- bandlik turini tanlashning ixtiyoriyligi va erkinligi;
- aholi bandligini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish;
- kamsitishga yo'l qo'yilmasligi;
- shaffoflik va ochiqlik;
- ishsizlikdan himoya qilish va ishga joylashishda, kasbga tayyorlashdan, qayta tayyorlashdan hamda malaka oshirishdan o'tishda ko'maklashish;
- O'zbekiston Respublikasidan tashqarida mehnat faoliyati bilan shug'ullanish, mustaqil ish izlash va ishga joylashish uchun huquqni ta'minlash;
- kasb egallash va ishga kirishdagi, mehnat qilish va bandlikni ta'minlash sharoitlaridagi, mehnatga haq to'lashdagi, xizmat pog'onalari bo'yicha ko'tarilishdagi imkoniyatlar tengligining kafolati;
- majburiy mehnatni ta'qiqlash, ya'ni biron-bir jazo qo'llash tahdidi bilan ish bajarishga majburlashni ta'qiqlash.²

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, yoshlarga o'z vatanida o'ziga maqbul ishni tanlash va ishlash imkoni hamda kamsitishga yo'l qo'yilmasligi, shaffoflik va ochiqlikning ta'minlab berilishi hech qanday to'siqlarsiz amalga oshirilmoqda.

Muxtasar qilib aytganda, globallashuv va yoshlar migratsiyasi kuchayib borayotgan bir paytda, yoshlarni har qanday sharoitda ham qo'llab-quvvatlash va ularga teng imkoniyatlar yaratib berish davlatning eng muhim va ustuvor vazifasiga aylanishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

<https://www.unicef.org/uzbekistan/uz/pressreleases/%C6%A1zbekistonda-migratsiya-tasiridan-bolalarni-himoyalash-b%C6%A1yicha-loyiha-ishga>

<https://qalampir.uz/uz/news/ayellar-va-yeshlar-bilan-boglik-zhinoyatlarga-me%D2%B3nat-migratsiyasi-sabab-bulmok-da-tanzila-norboyeva-11249>

<https://yuz.uz/news/ozbekistonda-yoshlar-mehnat-migratsiyasi-buguni-va-istiqboli>

Shuhrat Isoqulov. Migratsiyaning salbiy ta'sirini qanday kamaytirish mumkin? <https://pv.uz/oz/news/migratsija-kak-snizit-negativnyj-effekt>

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi matbuot xizmati. <https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=43>

<https://lex.uz/docs/-5055690>

¹ Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi matbuot xizmati. <https://uzbektourism.uz/uz/newnews/view?id=43>

² <https://lex.uz/docs/-5055690>

М У Н Д А Р И Ж А

<i>A.X.Саидов.</i> Пандемия ва мигрантлар ҳуқуқи: Ўзбекистон тажрибаси	3
<i>A.M.Жумабоев.</i> Кириш	7
<i>M.M.Акрамов.</i> Миграция и ее отражение в кинематографическом искусстве	10
<i>H.A.Аббосхонова.</i> Глобаллашув даврида ёшлар миграцияси жараёнларида Ўзбекистоннинг иштироки	15
<i>C.A.Саидова.</i> Миграция жараёнларининг ёшлар ҳаётидаги дин омилига таъсири	19
<i>V.Kuchkarov, A.Kuchkorov.</i> The impact of international migration processes on Uzbekistan in the context of globalization	23
<i>D.Ernazarov.</i> Some issues of migration policy in Uzbekistan	29
<i>I.Nekov.</i> Xalqaro miqyosda migratsiya jarayoni va uning o'ziga xos jihatlari	32
<i>Ш.Авазов.</i> Ўзбекистонда мажбурий меҳнатни олдини олишга қаратилган ташкилий ислохотлар	36
<i>J.Begimkulov.</i> Jizzax viloyatida yoshlar bandligini ta'minlashning muammo va yechimlari xususida	40
<i>J.Butayev.</i> Globallashuv davrida migratsiya jarayonlari va uning iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy masalalari	45
<i>Г.Азаматова.</i> Covid-19 пандемияси шароитида меҳнат миграцияси	47
<i>A.Zairov.</i> Globallashuv davrida migratsiya bilan bog'liq muammolar va uning yechimlari xalqaro tajriba asosida	51
<i>O.Tolliyev.</i> Globallashuv jarayonida dunyodagi migratsion holat (Fransiya misolida)	56
<i>U.Ibragimov, F.Ibragimova.</i> Globallashuv davrida dunyoda migratsiya jarayoni va yurtimizda yoshlar migratsiyasida amalga oshirilayotgan islohotlar	61
<i>M.Abduqodirova.</i> O'zbekistonda yoshlar migratsiyasi masalalari	64
<i>H.Panjizoda.</i> Yoshlar migratsiyasining ijtimoiy-siyosiy masalalari	69
<i>M.Umarova.</i> Globallashuv davrida yoshlar migratsiyasi va uning ijtimoiy siyosiy masalalari	74
<i>J.Bazarbaeva.</i> Globallashuv davrida yoshlar migratsiyasi va uning ijtimoiy-siyosiy masalalari	79
<i>L.Xoliqov.</i> O'zbekistonda yoshlar migratsiyasi va bu boradagi islohotlar	82
<i>S.Azizqulova.</i> Pandemiya davrida xalqaro migratsiya jarayonlari	87
<i>A.Sharopov.</i> Yoshlar migratsiyasi masalalari: muammolar va yechimlar	92
<i>Z.Sheraliyeva.</i> Globallashuv davrida migratsiya bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari	95
<i>B.Turdiyev, S.Sulaymonbekov.</i> Yoshlar migratsiyasi: muammo va yutuqlar tahlili	100
<i>D.Tohirova.</i> The peculiarities of the changing trends of international migration in the course of pandemic	105
<i>Sh.Karimova.</i> Globallashuv davrida xotin-qizlar migratsiyasi va ijtimoiy-siyosiy muammolari	108
<i>Ш.Арифджанов.</i> Тенденции международной миграции в глобализирующемся мире	111
<i>A.Хурсандов.</i> Ўзбекистонда инсон ҳуқуқларини ҳимоя қилиш миллий тизимида – бошпана ҳуқуқи масалалари	120
<i>A.Ҳайдаров.</i> Глобаллашув жараёнида миллий гвардия ҳарбий хизматчиларининг ахборот маданиятини шакллантириш долзарб масала	127

TOSHKENT
YOSHLAR
FORUMI
2020



RESPUBLIKA YOSH OLIMLAR
KENGASHI

18–21-dekabr kunlari Toshkentda o'tkazilgan
"Toshkent yoshlar forumi – 2020" forumining
"Globalashuv davrida yoshlar migratsiyasi va
uning ijtimoiy-siyosiy masalalari" mavzusidagi
Xalqaro Konferensiyasida faol ishtiroki uchun

Xoliqov Lazizjon

SERTIFIKAT

bilan taqdirlanadi

2020-yil, 30-dekabr
Toshkent shahri



S.A.SAIDOVA,
Respublika yosh olimlar
Kengashi rahbari